



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Обид Мамаюнович Пардаев</b> Коммунал хизматларни кўрсатишда креатив ёндошув асосида синергетик самарага эришишнинг инновацион йўналишлари	87
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева</b> Подходы к исследованию мультиатрибутивных параметров на рынке образовательных услуг вузов: рекомендации и методология	92
<b>Durbek Mirzaaxmadov</b> Xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi	96
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Дилафруз Каршиевна Усманова</b> Социальное партнерство как основа диверсификации национального туристского продукта Узбекистана	99
<b>Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Sadoqat Murodjonava Vahobova</b> O'zbekiston turizm xavfsizligini ta'minlashdagi huquqiy va amaliy chora-tadbirlar tahlili	109
<b>Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов</b> Хизмат кўрсатиш тизимида зиёрат туризмини ўрни ва ўзига хос хусусиятлари	111
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Marjona Otabekovna Asliddinova</b> Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalarini qo'llash	114
<b>Зумрад Исламовна Усманова</b> Развитие сферы услуг и туристической индустрии в Узбекистане: тенденции, вызовы и перспективы	117
<b>Матлуба Абдиманабовна Куймуратова</b> Туризмнинг турлари ва улар таркибида экологик туризмнинг ўрни ва аҳамияти	121
<b>Хасан Абдусаидович Рахимов</b> Туризм ва меҳмонхона соҳаси самарадорлигини оширишда қабул қилинадиган бошқарув қарорларининг таснифи	125
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Shukurullo Nusratullo o'g'li Haqqulov</b> Turizm va mehmonxona sanoatining iqtisodiy ahamiyati	128
<b>Akbarjan Sabirjanovich Madaxanov, Zaynab Sattarovna Naimova, Akmal Akbarjanovich Madaxanov</b> Ekologik va rekreatsion turizm destinatsiyalarini yaratish va ulardan foydalanishda inson omili masalalariga doir mulohazalar	132
<b>Nozima Miraxmad qizi Toirova</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish tendentsiyalari: innovatsion yondoshuvlar va ishlab chiqarish samaradorligi	137
<b>Farida Abdusalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatullayev</b> Turizm va mehmondo'stlik industriyasida standartlashtirish va muvofiqlikni baholash xizmatlarining takomillashtirish yo'llari	141
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova</b> Navoiy viloyatida qishloq turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	144
<b>Shaxnoza Toshpulatova</b> Tarixiy arxitektura yodgorliklarining turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri	147
<b>Sitora Otabekovna Xamroyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova</b> Innovatsion turizm sohasida zamonaviy marketing reklamalarining o'rni	150
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Jahongir Bakhodirovich Ergashev</b> Korxonalarda xarid faoliyatini tashkil etish va boshqarish xususiyatlari	153

Shaxnoza Toshpulatova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

## TARIXIY ARXITEKTURA YODGORLIKLARINING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI VA HUDUDLAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarixiy arxitektura yodgorliklarining yurtimiz turizm sohasini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ularning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohaslarini qo‘llab-quvvatlash, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy arxitektura, turizm, madaniy meros, iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar, hududiy taraqqiyot, bandlikni oshirish, aholi daromadining oshishi, madaniy identifikatsiya, xususiy tadbirkorlik.

**Kirish.** Turizm sanoati bugungi kunda bir qator mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, tarixiy arxitektura yodgorliklari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy yodgorliklar nafaqat madaniy va tarixiy merosni saqlab qolish, balki hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va go‘zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi. “O‘zbekiston – 2030» strategiyasida O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasini qo‘ygan.

Xorijiy turistlar tashrifi bo‘yicha O‘zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O‘zbekistonga 6 mln. 748 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 6 mln. 626 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur’atlar bilan tiklanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko‘proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog‘liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o‘tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda.”<sup>1</sup>

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga doir ko‘plab ilmiy ishlar qilingan. Xususan, xorijlik olimlar, jumladan: “A.Yu.Aleksandrova, N.A.Goncharova, M.A.Jukova, I.V.Zorin, Ye.N.Pavlova, W.Althof, D.Buhalis”<sup>2</sup> va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, B.N.Navroz-zoda, D.X.Aslanova, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, S.A. Abduhamidov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlashda mantiqiy tahlil, ilmiy mushohada, statistik guruhlash, innovatsion usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tarixiy yodgorliklarni asrab - avaylash hamda ularni kelgusi avlodga bus-butunligicha yetkazish, ulardan turizm sohasida foydalanishda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Darhaqiqat, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagi PQ–109-son qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda strategik yo‘nalishlardagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasining 68-69-bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida Strategik islohotlar agentligi va Turizm qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasida axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish hamda yangi imkoni-

<sup>1</sup> <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7108-o-zbekistonda-turizm-sohasining-rivojlanishi-xalq-farovonligining-yuksalishiga-xizmat-qiladi.html>

<sup>2</sup> Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001. – 464 с.; Гончарова Н.А. Управление жизненным циклом дестинации // Известия Томского политехнического университета. Т.318, №6, 2011 с.53-55; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Зорин И.В. Дестинация. М.: ВЛАЦ, 2009. 28 с.; Павлова Е.Н. Развитие регионального профессионального туристского образования на основе туристской дестинации (на примере Карелии). Петрозаводск: КарНЦРАН. 2009. 105 с.; Althof W. Incoming Tourism. Munchen. Wien: Oldenbourg Verlag. 2001. 356 p.; Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future//Tourism Management 2000.№21(1). P.97-116.

yatlarni yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi”<sup>1</sup>. Unga ko‘ra turizmning yani turlarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Tarixiy yodgorliklar ko‘p yillardan buyon o‘zining noyob va o‘ziga xos uslubi bilan turistlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Bu obyektlar, ko‘plab tarixiy voqealarning obyekti hisoblanib, O‘zbekistonning madaniy boyligini o‘zida ifoda etadi. Ularning saqlanishi va taqdim etilishi turizmning asosiy istiqbolini shakllantiradi. Yodgorliklar, odatda, tarixiy voqealar, madaniy an‘analar va milliy merosni o‘zida namoyon etib, sayyohlar uchun mamlakatni o‘rganish va kashf qilish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, turizmga oid yangi turlar va faoliyatlar rivojlanib, hududlar iqtisodiyotni yanada jonlantiradi.

O‘zbekistondagi Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Navoiy shaharlaridagi tarixiy yodgorliklar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham mashhurlikka erishgan. Bu hududlar har yili minglab sayyohlarni o‘ziga jalb qilib, turizmning yanada rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Shuningdek, turizm rivojlanishi natijasida avvalo hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tarixiy yodgorliklar va ularni saqlash, ta‘mirlash va boshqarish jarayonlari yangi ish o‘rinlari yaratadi. Turizmga bog‘liq xizmatlar, jumladan, mehmonxonalar, restoranlar, ekskursiya, sayohat xizmatlari, gidlar va hunarmandchilik kabi sohalarida bandlikni oshishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, bu sohalar mahalliy aholining daromadlarini oshirishga hamda ularning iqtisodiy farovonligini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi aholining xarid qobiliyatini oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy yodgorliklar turizmining rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatib, turistlar hududga kelganda, ular nafaqat arxitektura obyektlarini, balki mahalliy san‘at, qo‘l mehnati va boshqa xizmatlarni ham iste‘mol qiladilar. Bu o‘z navbatida mahalliy bizneslar, kafe va restoranlar, savdo do‘konlari va boshqa kichik tadbirkorlik faoliyatlarini rag‘batlantiradi. Turizmdan olinadigan daromadlar esa davlat byudjetiga to‘plangan soliq va boshqa majburiyatlar orqali hududni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Turizmning yuksalishi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yanada mustahkamlanishi uchun tarixiy yodgorliklarni saqlash va xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish muhim yo‘nalishlardan biridir.

Bugungi kunda yurtimizda mavjud tarixiy arxitektura yodgorliklaridan turizm sohasida foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy istiqbollari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

1. Tarixiy yodgorliklarning xizmatlar multiplikativligini ta‘minlashga qaratilgan investitsiyalarni ko‘paytirishga doir ishlarni kuchaytirish;
2. Ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan tashqari qo‘shimcha daromad manbalarini ko‘paytirishga qaratilgan ishlarni kuchaytirish;
3. Daromad olish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi. Masalan: faqat kirish chiptalari va ekskursiya xizmatlari emas, balki qo‘shimcha xizmatlardan foydalanib, samaradorlikni oshirish;
4. Ish o‘rinlarining cheklanganligi – tarixiy yodgorliklar atrofidagi hududlarda mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbalari kam.
5. Tarixiy obidalarida faoliyat olib boruvchilarning kasbiy malakasini oshirish;
6. Mahalliy tadbirkorlikning rivojlanmaganligi – hunarmandchilik, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdosi va sayyohlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari cheklanganligi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar turizm sohasidan foyda olishni kengaytirish maqsadida o‘zlarining bir qaror strategiyalarini qo‘llamoqda. Xususan, Kanada turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yondashuvlardan foydalanmoqda:

- Xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantirish – soliq imtiyozlari va investitsiya fondlari orqali turizmga sarmoya jalb qilish;
- Ekoturizm va barqaror turizmni rivojlantirish – yodgorliklardan ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish;

<sup>1</sup> <https://asr.gov.uz/news/12198>

- Raqamli marketing va innovatsiyalar – onlayn xizmatlar, sun’iy intellekt va virtual turlar orqali sayyohlarni jalb qilish;
- Mahalliy aholining turizmga ishtirokini oshirish – kasb-hunar kurslari va grantlar orqali mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash.
- Tarixiy obyektlarni tijorat maqsadlarida samarali boshqarish – davlat-xususiy sheriklik orqali tarixiy obyektlarni iqtisodiy jihatdan samarali ishlatish;

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirib o‘tilgan masalalarning ilmiy yechimi sifatida mualliflar tomonidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Mahalliy aholining tadbirkorlik salohiyatini oshirish maqsadida ular uchun kasb-hunar kurslari tashkil etish, xususan, gidlar, mehmonxona xodimlari, hunarmandlar va tadbirkorlar uchun bepul yoki imtiyozli ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish;
2. Hunarmandchilik va mahalliy mahsulotlar savdosini qo‘llab-quvvatlash orqali xususiy biznes vakillari uchun turistik yarmarkalar tashkil etish, mahalliy brendlarni yaratish va milliy hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni rag‘batlantirish.
3. Mehmon uylarini (Guest House) tizimini rivojlantirish, ularga imtiyozlar yaratish;
4. Turistik soliqlarni optimallashtirish, mehmonxonalar va restoranlar uchun soliqlarni kamaytirish orqali xizmatlar narxini pasaytirish;
5. Xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga asosan moslashtirish – Sayyohlar uchun arzon va sifatli xizmatlar taqdim etish maqsadida hududlarda xalqaro mehmonxona tarmoqlari va restoranlar salmog‘ini yanada ko‘paytirish;
6. Infratuzilmani yaxshilash va transport tizimini rivojlantirish hamda tarixiy yodgorliklarga olib boruvchi yo‘llarni ta’mirlash va modernizatsiya qilish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan takliflar natijasida hududlarda turizm sohasi yanada rivojlanishi ta’minlanib, mahalliy aholining hayot tarzi barqarorlashuvi uchun xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik islohatlar agentligi ma’lumotlari
3. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, —Fan bulog‘il nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 б.т.
4. X.M. Mamatqulov —Turizm infratuzilmasil o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2011.
5. I.S. Tuxliyev, S.A. Abduhamidov —Turizm nazariya va amaliyotl, darslik. 2021.

<p><b>Ш.Тoшпулатова</b></p> <p><b>Значение историко-архитектурных памятников в развитии туристической отрасли и их влияние на социально-экономическое развитие регионов</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируется роль историко-архитектурных памятников в развитии туристической сферы нашей страны и их влияние на социально-экономическое развитие регионов. В статье рассматриваются возможности создания новых рабочих мест, поддержки малого бизнеса и сферы услуг, привлечения иностранных и местных инвестиций за счет развития туризма.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> историческая архитектура, туризм, культурное наследие, экономическое развитие, инвестиции, региональное развитие, рост занятости, рост доходов, культурная идентичность, частное предпринимательство.</p>	<p><b>Sh.Toshpulatova</b></p> <p><b>The significance of historical and architectural monuments in the development of touristic industry and their impact on socio-economic development of regions</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the role of historical-architectural monuments in the development of the tourism sector of our country and their impact on the socio-economic development of regions. The article examines the possibilities of creating new jobs, supporting small businesses and the service sector, and attracting foreign and local investments through the development of tourism.</p> <p><b>Keywords:</b> historical architecture, tourism, cultural heritage, economic development, investments, regional development, employment growth, population income growth, cultural identity, private entrepreneurship.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.